



XALQ DEPUTATLARI MIRISHKOR TUMAN KENGASHI Q A R O R I

2022 - yil 28 - aprel

VI-34-38-4-63-K/22

Mirishkor tuman hokimligi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 13-apreldagi “Byudjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5072-sonli Qarori ijrosi yuzasidan mablag‘ ajratish haqida.

Mirishkor tuman mahalliy byudjetining 2022 yil Tuman mahalliy byudjet parametri va yil boshidagi erkin qoldiq mablag‘i hamda tuman mahalliy byudjeti daromadlar rejasini orttirib bajarilgan qismi hisobidan tuman xokimligi qoshida ochilgan “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi” mablag‘lari hisobidan jamoatchilik fikrlari asosida g‘olib deb topilgan tadbirlarga mablag‘larni yo‘naltirish to‘g‘risidagi ishchi komissiyasining hisobotini atroflicha muhokama qilib, xalq deputatlari tuman Kengashi

Q A R O R Q I L A D I:

1. Jamoatchilik fikri asosida tadbirlarni shakllantirish, baholash, tanlab olish hamda ijrosini monitoring qilish bo‘yicha komissiyaning xulosasiga asosan O‘zbekiston respublikasi Moliya vazirligining “openbudjet.uz” portali orqali ovoz berish jarayonida g‘olib deb topilgan tadbirlarga mablag‘larni yo‘naltirish to‘g‘risidagi taklifi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tuman xokimligi qoshida ochilgan “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi” mablag‘lari hisobidan jamoatchilik fikrlari asosida O‘zbekiston respublikasi Moliya vazirligining “openbudjet.uz” portali orqali ovoz berish jarayonida g‘olib deb topilgan ID 620400171 Yangi Mirishkor MFYdagi “Navruz” kuchasi 600 metr qismini asfalt qilish uchun 270000000 (ikki yuz etmish million) so‘m, ID 620400168 Mirishkor tuman Qurama mahallasida 31 dona tungi yoritish ko‘cha chirog‘i o‘rnatish uchun 258000000 (Ikki yuz ellik sakkiz million) so‘m, ID 620400163 Mirishkor tuman Yangiobod qishlog‘iga 08 km piyodalar yo‘lakhasi qurish uchun 149000000 (bir yuz qirq to‘qqiz million) so‘m, ID 620400091 Jeynov ichimlik suvi inshooti yulini asfalt kilish 150 metr uchun 68000000 (oltmish sakkiz million) so‘m, ID 620400073 Mirishkor tuman markaziga kirish yo‘li (4 K 325 yo‘lining) 37km qismini asfalt qoplamasi yotqizish uchun 1000000000 (bir milliard) so‘m, ID 620400065 Baluj MFYda 14 km piyodalar yo‘lakhasi qurish uchun 260000000 (ikki yuz oltmish million) so‘m, ID 620400060 Oltin

boshqoq MFYda 38 dona ko'cha chiroqlari o'rnatish uchun 315400000 (Uch yuz o'n besh million to'rt yuz ming) so'm, ID 620400059 Qurama MFYda 1 km piyodalar yo'lakchasi qurish uchun 186000000 (bir yuz sakson olti million) so'm, ID 620400030 7-sonli maktabda Sport zal qurish uchun 900000000 (To'qqiz yuz million) so'm, ID 620400023 Jeynov shifoxonasi ichki yo'llarini asfalt qilish(500metr), shifoxona xodimlari va bemorlar uchun aloxida xojatxona, shifoxona uchun qorovulxona qurish uchun 250000000 (Ikki yuz ellik million) so'm, ID 620400021 Mirishkor tuman Chamanzor yullari tamirlash uchun 900000000 (To'qqiz yuz million) so'm va ID 620400005 Pomuq shaharchasidan o'tgan "4P92" avtomobil yo'lining Gulobod va Baxoriston mahallalarini bog'lovchi kesishmadagi markaziy chorrahaga svetafor qo'yish uchun 165000000 (Bir yuz oltmish besh million) so'm;

3. Tuman hokimligi moliya bo'limi (A.SHukurov)ga ushbu qarordan kelib chiqib ko'rsatilgan mablag'larni rejalashtirish uchun tuman mahalliy byudjetiga tegishli o'zgartirishlar kiritish vazifasi hamda tuman xokimligi bosh hisobchisi (H.Arziqulov)ga tegishli tartibda ishlarni amalga oshirish vazifasi topshirilsin.

4. Tuman G'aznachilik bo'linmasi boshlig'i v/b (SH.Nashirov)ga tuman xokimligi moliya bo'limi tomonidan rejalashtirilgan mablag'lar bo'yicha yuridik va molyaviy majburiyatlarni ro'yxatga olgan holda to'lovlarni amalga oshirish vazifasi topshirilsin.

5. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish tuman xokimining birinchi o'rinbosari A.Sariqov va xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy byudjet, iqtisodiy islohatlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbikorlikni rivojlantirish masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi zimmlariga yuklatilsin.

Kengash raisi



Sh.Ch.Sanayev